

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI IQTISODIY BILIM ASOSLARI O‘QUV FANI
O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI IQTISODIY BILIM ASOSLARI O‘QUV FANI
O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari Iqtisodiy bilim asoslari o‘quv fani o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o‘tkazish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning Iqtisodiy bilim asoslari fani, kasb standartlari va pedagogik mahorat bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta topshirig‘i

taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun o'rta hisobda 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*), *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)* foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Iqtisodiyotga kirish (1-3-savollar)		
1.1.Iqtisodiyot bilan tanishuv	- iqtisodiyotga oid tushunchalarni (iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini) haqida bilish, taqqoslash; - tanlov va uning muqobil qiymati, cheklanganlik muammosi haqida bilish, farqlash hamda notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish;	2 ta
1.2.Ishlab chiqarish va uning omillari, iqtisodiy tizimlar	- ishlab chiqarish va uning omillari, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv, iqtisodiy tizimlarni bilish, xususiyatlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish;	1 ta
2. Ayirboshlash jarayonlari va bozor munosabatlari (4-7-savollar)		
2.1.Ayirboshlash va pul	- ayirboshlash va pul tizimi, pul massasi haqida bilish, pulning funksiyalarini farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish;	1 ta

2.2.Bozor munosabatlari	- bozor va uning turlari (moliya bozori, iste'mol tovarlar bozori, intellektual tovarlar bozori, birjalar) haqida bilish, turlarini farqlash, imkoniyatlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish; - bozorlar, tovarlar, narxlar haqida bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, bozorlar va narxlarga oid iqtisodiy masalalarni ishlash, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari) ni tahlil qilish; - bozor qatnashchilarini (davlat, ishlab chiqaruvchilar va oila – uy xo'jaliklar) haqida bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatlarni aniqlash, taqqoslash va tahlil qilish;	3 ta
3. Oila – uy xo'jaliklari iqtisodiyoti (8-10-savollar)		
3.1.Iste'molchilar iqtisodiyoti va moliyaviy qarorlar	- iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari haqida bilish, turlarini farqlash, imkoniyatlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish; - mulk va xususiylashtirish; - daromad va boylik to'g'risida bilish, farqlash, xususiyatlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish; - jamg'arish va sug'urta, iqtisodiy qaror qabul qilish, iste'molchilarning huquqlari va majburiyatlari haqida bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, ularga oid iqtisodiy masalalarni ishlash, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari) ni tahlil qilish;	3 ta
4. Talab va taklif (11-14-savollar)		
4.1.Talab va talab qonuni	- talab va talab qonunini bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, ularga oid iqtisodiy masalalarni ishlash, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari) ni tahlil qilish;	

	- talab va taklifga ta'sir etuvchi boshqa omillar to'g'risida bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish; - tovarning bozor narxi ta'sir etuvchi omillar to'g'risida bilish, farqlash, taqqoslash, tahlil qilish; - talab va taklif o'zgarishining bozor narxiga ta'sirini bilish, o'zaro bog'liqlik aniqlash, ularga oid iqtisodiy masalalarni ishlash, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari) ni tahlil qilish;	4 ta
5. Raqobat va bozor iqtisodiyoti (15-17-savollar)		
5.1.Raqobat va monopoliya	- raqobat va uning turlari to'g'risida bilish, xususiyatlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish; - monopoliya va monopollashgan bozorlar haqida bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, ularga oid iqtisodiy masalalarni ishlash, tahlil qilish;	2 ta
5.2. Bozor iqtisodiyoti	-bozor iqtisodiyoti to'g'risida bilish, imkoniyatlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish;	1 ta
6. Soliq tizimi va soliq turlari (18-19-savollar)		
6.1.Soliq tizimi	- soliqlar va ularning turlarini bilish, farqlash, xususiyatlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish; - soliqqa tortish asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlarini bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, baholash, ularga oid iqtisodiy masalalarni ishlash, tahlil qilish;	2 ta
7. Tadbirkorlik faoliyat va turlari (20-24-savollar)		

7.1.Tadbirkorlikni iqtisodiy faoliyat tahlili	- firma va uning turlari, firma tashkil qilish va uning boshqaruvini bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish va xulosalash; - tadbirkorlikni iqtisodiy faoliyat tahlili qilish (resurslari, mablag‘lari va xarajatlari, tannarxi, yalpi daromad, foyda va zarar), shunga oid iqtisodiy masalalarni ishlash, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari) ni tahlil qilish; - raqobatdoshlikni va risklarini baholash, taqqoslash, ularni tahlil qilish va xulosalash;	3 ta
7.2.Investitsiya va innovatsion faoliyat	- biznes loyiha va startaplar, bank kreditlari to‘g‘risida bilish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlash, ularga oid iqtisodiy jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari) ni tahlil qilish; - investitsiya va innovatsion faoliyati, marketing to‘g‘risida bilish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlash, ularga oid iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish;	2 ta
8. Davlat va iqtisodiyot (25-27-savollar)		
8.1.Davlatning iqtisodiy vazifalari bank tizimi	- davlatning iqtisodiy vazifalarini, davlatning bozor iqtisodiyotiga ta’sirini bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish; - davlat byudjeti to‘g‘risida bilish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlash, ularga oid iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish; - bank tizimi to‘g‘risida bilish, markaziy bank va tijorat banklarining vazifalarini farqlash, taqqoslash, unlarini tahlil qilish;	3 ta
9. Iqtisodiy o‘sish (28-30-savollar)		

9.1.Iqtisodiy o'sish va rivojlanish	- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, inflyatsiyaning oqibatlariga oid iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish; - iqtisodiy o'sish va rivojlanish haqida bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, taqqoslash va tahlil qilish;	2 ta
9.2.O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy salohiyati	- mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari va ustuvor sohalarini bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish;	1 ta
10. Inflyatsiya va ishsizlik (31-33-savollar)		
10.1.Inflyatsiya	- inflyatsiya va uning turlari to'g'risida bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, inflatsiyaning oqibatlariga oid iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish;	1 ta
10.2.Ishchi kuchi bozori	- ishchi kuchi bozori va ishsizlik haqida bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlash, taqqoslash va tahlil qilish; - davlat tomonidan aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini, ijtimoiy himoya vositalarini bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish;	2 ta
11. Jahon iqtisodiyoti (34-35-savollar)		
11.1.Xalqaro iqtisodiy munosabatlar	- davlatlar o'rtasidagi savdo, investitsiya va moliyaviy aloqalarni, valyuta kursi va uning o'zgarish sabablari va ahamiyatini bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish;	1 ta
11.2.Jahon iqtisodiyoti muammolari	- global iqtisodiy muammolarni (inqirozlar, tengsizlik, resurslar taqchilligi) bilish, taqqoslash, ularni tahlil qilish;	1 ta
Jami		35 ta

**Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test
topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari
bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta
2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;	7
2.2. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami		15 ta

Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	8
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) vaziyatlarda qo‘llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javobga 2 ball, noto‘g‘ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta’limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. 8-sinf Iqtisodiy bilim asoslari darsligi. E.Sarikov, B. Xaydarov, “Huquq va jamiyat”, 2019
2. 9-sinf Iqtisodiy bilim asoslari darsligi. E.Sarikov., B. Xaydarov. “Huquq va jamiyat”, 2019
3. 11-sinf Tadbirkorlik asoslari darsligi. U.Gafurov., Q.Sharipov. “O‘zbekiston”, 2018
4. Iqtisod nazariyasi.B.D. Xajiyev, K.K. Mambetjanov. “Iqtisodiyot”, 2019
5. Bozor iqtisodiyoti kollej. T.Ergashev. „O‘qituvchi“, 2005
6. Iqtisodiyot asoslari kollej. Ahmadjon O‘lmasov. “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot”, 2013
7. Iqtisod (O‘rta kasb-hunar ta’limi). I.V. Lipsits “Knorus”, 2018
8. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik, Toshkent. 2020

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.
5. Jumanov X. T. Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2021.
6. Jumanov X. T. Geografiya va iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi. Toshkent 2022.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*